



O'QUVCHILARINI MILLIY MA'NAVIYATINI SHAKILLANTIRISHDA XALQ O'YINLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Toxirova Dilfuza Mir'agzamovna

e-mail: nizomxonovelbekxon@gmail.com

Magistr, Oriental universiteti, Shota Rustaveli ko'chasi 154 A-uy, Tashkent 100149, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879363>

Annotatsiya. Maqolada milliy xalq o'yinlari sog'lom avlod tarbiyasidagi samarali usullardan biri sifatida tadqiq qilingan bo'lib, xalq o'yinlarini ta'lim-tarbiya jara'ida tashkil qilish va samaradorligini oshirish yuzasidan pedagogik tavsiyalar berilgan..

Kalit so'zlar: Sog'lom avlod tarbiyasi, uzluksiz ta'lim tizimi, sog'lom turmush tarzi, milliy xalq o'yinlari, ta'lim-tarbiya jara'ini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy va madaniy qadriyatlar

Ключевые слова: Воспитание здорового поколения, образования, здоровый образ жизни, национальные народные игры, современные образовательные технологий, национальные и культурные ценности.

Аннотация: В статье автор даёт педагогические рекомендации по организации и проведению народных игры в процессе воспитания здорового поколения, так же изучаются наиболее эффективных способы их организации.

Keywords: The upbringing of a healthy generation, uninterrupted education, healthy lifestyles, national folk games, education, modern educational technologies, national and cultural values

Annotation: This article provides proposals for the organization of work on forecasting tax revenues for the formation of the state budget and the introduction of a wide range of methods for forecasting tax revenues in order to improve existing innovative approaches to determining the needs of expenditures in the budget and the main aspects of equalization programs, improving the efficiency of public finance management.

1. Kirish

Milliy ma'naviyat - bu xalqning tarixi, madaniyati, an'analari, qadriyatlari va e'tiqodlarining majmui. O'quvchilarni milliy ma'naviyat bilan tanishtirish, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Xalq o'yinlari esa bu borada beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan boy manbadir

Xalq o'yinlari - bu asrlar davomida xalq ommasi tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'yinlardir. Ularda milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlar mujassamlashgan. Xalq o'yinlari: Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi: O'yinlardagi milliy timsollar, qo'shiqlar va harakatlar o'quvchilarda milliy ma'naviyatga bo'lgan muhabbat va g'ururni uyg'otadi. Ijtimoiylashuvga yordam beradi: O'yinlarda o'quvchilar jamoa bo'lib harakat qilishni, bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, o'zaro munosabatlarni o'rnatishni o'rganadilar. Fizik va aqliy rivojlanishga yordam beradi: O'yinlardagi harakatlar, muammolarni yechish va strategik fikrlash o'quvchilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi: O'yinlardagi rollarni o'ynash, harakatlarni bajarish, qoidalarini o'zgartirish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mantiqiy usul va modellashtirish usullari, tahlil va sintez, normativ yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Jumaladan, Maqolada ko'tarilgan muammo yuzasidan tizimli va qiyosiy tahlillar asosida o'rganish shuni ko'rsatadiki, soliqlarni prognoz qilish ishlarni quyidagi ma'lumotlar asosida boshlash kerak bo'ladi:

xujalik yurutuvchi subyektlarni moliyaviy va xo'jalik hisobotlari ko'rsatkichlarini tahlili;

prognoz hisobotlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy omillarni tahlili;

Davlat soliq inpeksiya, Davlat soliq boshqarmalari va Davlat soliq qo'mitasi hisobot materiallarning tahlili.

3. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Milliy xalq o'yinlari – kurash, ko'pkari, merganlik, chavandozlik, ot ustidagi chavgon va shunga o'xshash mashg'ulotlar xalqimiz ha'etiga singib ketgan bo'lib, bu hatto adabi'et namunalarida aks etadi. Masalan,



"Alpomish" dostonida Barchinning qo'ygan shartlari – chavandozlik poygasi, èy tortish, merganlik, ya'ni ming qadamdan tanga pulni urish, kurash musobaqasi kabi bahslar xalqimizning asriy an'analari bo'lib, ularda èsh avlodni barkamol etib tarbiyalashdek ulug'vor g'oyalar aks etgan. Ayniqsa, dostonning Alpomish bilan Qorajonning uchrashuvidagi ko'rishish sahnasi g'oyat ta'sirli talqin qilingan. "Qorajon mahramlariga amr qildi: «Do'stim bilan ko'rishgin», -deb. Mahram xalqi nozik keladi, qo'l uchida ko'rishaètir.

"Qalaysan?"-deb siqinqirab yubordi, mahramlarning panjasi bir-biriga èpishib, qapishib, yanchilib ketdi-yu. Qorajon bilan Alpomish èydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko'rishdi. "Qalaysan, do'stim, omonsanmi?"- deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, ishi tindi, tappa tushib ètib qoldi. Alpomish aytdi: "Nima qildi, do'stim?". Qorajon sir bermagan kishi bo'lib: "Bola kunda tutadigan quènchiq kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi", -dedi. Alpomish aytdi: "Belgili kasal bo'lsa, tuzalib ol esa". Qorajon aytdi: "Rostingni aytgin, shul ko'rishganingmi è urishganingmi?" Alpomish aytdi: "Nima qildilaring – urishaman. Ko'rishganim edi". "Ko'rishganing shul bo'lsa, urishganing qanday ekan?".[2] Alpomish Qorajon mahramlarining qo'lini siqib ko'rishganda ularning panjalarining "yanchilib" ketishi, Qorajon bilan bel siqib ko'rishganda esa uning "yetti qovurg'asining sinishi" tasvirlari bejiz emas. Chunki Alpomish xalqimizning milliy sport o'yinlari vositasida g'oyat chiniquqan holda kamolga yetgan milliy qahramoni timsolidir. Masalan, Alpomish va Qorajonning bel siqib ko'rishuvida xalqimizga xos milliy kurash elementi mavjud bo'lib, kurash azaldan xalqimiz polvonlarini mard, tanti, kuchli va ayni paytda, g'oyat kamtarin insonlar bo'lganligini o'zida namoèn etadi. Polvonlar hech qachon "men polvonman" deb ko'ksiga urmagan, balki ular o'zining haqiqiy polvonligini kurash maydonida isbotlaganlar. Shu sababli xalq ularni sharaflab, ismlariga "polvon" nomini qo'shib aytgan. Dostonda kurash o'yiniga xos qoidalaridan biri keltiriladi.

Ko'kaldosh bilan kurashaètgan Alpomishga Barchin shunday deydi: Mardlar olishmaydi siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi...[3]

Ushbu so'zlar zamirida kurashning halol o'yin ekanligi, "siltab otgan" polvongina haqiqiy g'alabaga erishishi, mard polvongina maydonda "ish ko'rsatishi", ya'ni o'z kuch-qudratini namoèn etishi lozimligi aytilgan. Albatta, bu kabi talqinlarni o'zbek xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalari ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Sobiq Ittifoq xalqlarining o'yinlarini to'plam xolida chop etirgan V.N.Vsevolodskiy- Gerngross ham xalq o'yinlarini uchta katta guruhga ajratadi: drammatik, sport va ornamental. Shunindek, Ya.R.Vilkin belorus xalq o'yinlarini, S.L.Parolov turkman xalq o'yinlarini ilmiy tadqiq qilganlar. O'zbek xalqining an'anaviy o'yinlari, uning èsh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatiga M.Qoshg'ariy, Bayxaqiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, Z.Vosifiy, S.Ayniy, G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek, O'.Hoshimov, N.Safarov, Sh.Xolmirzayev, Tog'ay Murod kabi adiblarning asarlarida katta e'tibor berilgan

4. Tahlil va natijalar

Xalq o'yinlari - bu faqatgina bolalarning vaqtini o'tkazish usuli emas, balki milliy ma'naviyatning muhim qismi, ajralmas bir bo'lagidir. Ularda asrlar davomida shakllangan an'analar, qadriyatlar, madaniyat va tarixning izlari mujassamlashgan. O'quvchilarni xalq o'yinlari bilan tanishtirish, ularning milliy ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalq O'yinlarining O'quvchilar ma'naviyatiga ta'siri:

Milliy g'urur va vatanparvarlik: Xalq o'yinlaridagi milliy timsollar, qo'shiqlar, harakatlar o'quvchilarda o'z xalqiga bo'lgan g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

An'ana va qadriyatlarni o'rganish: O'yinlar orqali o'quvchilar milliy an'analar, urf-odatlar, marosimlar haqida bilib olishadi.

Ijtimoiylashuv va hamkorlik: O'yinlarda o'quvchilar jamoa bo'lib harakat qilishni, bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, o'zaro munosabatlarni o'rnatishni o'rganadilar.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: O'yinlardagi rollarni o'ynash, harakatlarni bajarish, qoidalarini o'zgartirish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Jismoniy va aqliy rivojlanish: O'yinlardagi harakatlar, muammolarni yechish va strategik fikrlash o'quvchilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xalq o'yinlarini o'quv jarayoniga kiritish usullari:

Maktab tadbirlari va bayramlar: Xalq o'yinlarini maktab tadbirlari, bayramlar va festivallarda qo'llash orqali o'quvchilarni milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirish mumkin.



Darslarda qo'llash: o'quv materiallarini o'rganish, mavzularni mustahkamlash, faollikni oshirish va o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun xalq o'yinlaridan foydalanish mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarni xalq o'yinlari bilan tanishtirish, ularni o'z farzandlari bilan o'yin o'ynashga jalb qilish va o'quvchilarga milliy ma'naviyatni shakllantirishda ota-onalarning rolini kuchaytirish muhim.

Xulosa va takliflar

Ushbu qiziqarli o'yinni maktabdagi mashg'ulotlarga tadbiq qilish mumkin. Buning uchun momiq to'p yasash va plastmassadan shakllar yaratish kerak xolos. Ushbu o'yinni har qaysi fan tarkibida o'tkazish mumkin. Bu bilan o'quvchilarda:

- ruhiy va aqliy toliqishlar bartaraf etiladi;
- mashg'ulotlarga qiziqish ortadi;
- yuqori kayfiyat va xushchaqchalik paydo bo'ladi;
- ijodkorlik, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik sifatleri shakllantiriladi;
- bir jamoa bo'lib ishlash tamoyili qaror toptiriladi va h.k.

Xulosa qilish kerakki, sog'lom avlod tarbiyasida xalq o'yinlaridan yuqori saviyada foydalanish, ularning turli ko'rinishlarini ta'lim-tarbiya jaraeniga teran tadbiq qilish kutilgan pedagogik natijalarni beradi.

Zero, sog'lom avlod tarbiyasi – yurtimiz kelajagining ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ислон Каримов. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 87 б.
2. Abdullayev A.A., Cluster method in the development of critical thinking technology in the lessons in primary school // Science and world International scientific Professional training of teacher of a nesh formation in the conditions of the implementation of inter-inter-industrial integration journal, 2020. № 5 (81), Vol. II, pp.16-19.
3. Abdullayev A.A., System of information and communication technologies in the education // Science and world International scientific journal, 2020 № 5 (81), 2020, Vol. II, pp.19-21.
4. Abdullayev Abduqayum Abdulkhayevich, Shonasirova Zahro Yuldashevna, Mutalova Dilnoza Abdurashidovna, Definition Of The Principles Of Teaching Preschool Children // The USA Journals Volume, 2020. 02 Issue 12 pp.- 93-99.
5. Abdullayev A.A., Professional training of teacher of a nesh formation in the conditions of the implementation of inter-inter-industrial integration // Ученый XXI Века научный журнал 2020, № 12 2020 pp 63-65.
6. Abdullayev A.A, Oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarida kasbiy mahoratni rivojlantirish ahamiyati // TDPU Ilmiy axborotlari, Tashkent, 2020. 191-194 bet maxsus 10-son
7. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синфи учун дарслик. 1- қисм. Тошкент – 2014 йил. 198 б.
8. М.Аслонова "Таълим жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш. (Бошланғич синфларнинг жисмоний тарбия дарслари мисолида)". Номзодлик диссертацияси. Навоий - 2008 йил. 155 б.
9. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2019 yil. 17-22-b.